

ISSN: 2782-436



Научно-образовательный электронный журнал

ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ



Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

ISSN 2782-4365

УДК 37

ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №34 (том 4) (январь,
2023). Дата выхода в свет: 03.02.2023.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»

© Коллектив авторов

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

| | |
|------------------------------------|---|
| Артикова Мухайохон Ботиралиевна | доктор педагогических наук, доцент |
| Батурин Сергей Петрович | кандидат исторических наук, доцент |
| Бекжанова Айнурा Мархабаевна | доктор философии по педагогическим наукам (PhD) |
| Боброва Людмила Владимировна | кандидат технических наук, доцент |
| Богданова Татьяна Владимировна | кандидат филологических наук, доцент |
| Демьянова Людмила Михайловна | кандидат медицинских наук, доцент |
| Еремеева Людмила Эмировна | кандидат технических наук, доцент |
| Засядько Константин Иванович | доктор медицинских наук, профессор |
| Колесников Олег Михайлович | кандидат физико-математических наук, доцент |
| Коробейникова Екатерина Викторовна | кандидат экономических наук, доцент |
| Ланцева Татьяна Георгиевна | кандидат экономических наук, доцент |
| Нобель Артем Робертович | кандидат юридических наук, доцент |
| Ноздрина Наталья Александровна | кандидат педагогических наук, доцент |
| Павлов Евгений Владимирович | кандидат исторических наук, доцент |
| Петрова Юлия Валентиновна | кандидат биологических наук, доцент |
| Попов Сергей Викторович | доктор юридических наук, профессор |
| Табашникова Ольга Львовна | кандидат экономических наук, доцент |
| Тюрин Александр Николаевич | кандидат географических наук, доцент |
| Уразова Лариса Карамовна | кандидат исторических наук, доцент |
| Усубалиева Айнурा Абдыжапаровна | кандидат социологических наук, доцент |
| Фаттахова Ольга Михайловна | кандидат технических наук, доцент |
| Худайкулов Хол Джумаевич | доктор педагогических наук |

| | |
|--|-----|
| ПРЕДИКАТЫ И ОТОБРАЖЕНИЯ (НОВАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА БИНАРНЫХ ОТНОШЕНИЙ И ОТОБРАЖЕНИЙ) | 428 |
| Досанов М.С., Мирмухамедов Дж.Х., Умаров Х.Р. | |
| AXOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA MUXIM RO'L O'YNAYDIGAN OMILLAR TAXLILI | 434 |
| Sultanova Xolida Tursunmuratovna | |
| FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANТИRISH OMILLARI | 440 |
| Maxmudov L.Yu., Остонов Ж. | |
| ПРОБЛЕМЫ ОБЪЕДИНЕНИЯ НЕСКОЛЬКИХ КОМПЬЮТЕРОВ ПО СПЕЦ.ПРЕДМЕТУ ЭВМ И СЕТИ | 443 |
| Клементьева Анастасия Дмитриевна | |
| СТАНОВЛЕНИЕ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В КАРАКАЛПАКСТАНЕ | 447 |
| Жумабаев Анвар Хабиб улы | |
| EPSHTEYN-BARR VIRUSINI TASHXISLASH VA UNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI | 456 |
| Yodgorova N.T., Abdiyeva M.B., Eshbekova L.SH. | |
| ZAMONAVIY MOLIYA TIZIMI VA MOLIYAVIY MUNOSABATLAR TUZILISHI | 473 |
| Shokirov Feruz Bahodirovich | |
| SHAXS RIVOJLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA QADRIYATLARNING TA'SIRI | 477 |
| Tojiboyeva Nodira | |
| МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ | 480 |
| Рахмонкулова Мухайё, Хамирова Окилахон | |
| РОЛЬ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В СИСТЕМЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В КУРСЕ МАТЕМАТИКЕ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ | 487 |
| Жанибекова Зухра Отабек кизи | |
| МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ | 490 |
| Саурбаева Марина Мирзатоевна | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ | 493 |
| Ильдарова Надежда Сергеевна | |
| СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД В ИЗУЧЕНИИ РКИ | 497 |
| Абдивахидова Гулсара Алиевна | |
| MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARIDA DO`STONA MUNOSABATLARGA ASOSLANGAN HAMKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH | 502 |
| Sultonova Nargiza | |

ФИО авторов: Maxmudov L.Yu.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi.

Oстонов Ж.

Samarkand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, o'qituvchisi

Название публикации: «FUQAROLIK JAMIYATI SHAKLLANISHIDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI»

АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni fuqarolarda rivojlantirish omillari to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Fuqaro, fuqarolik jamiyati, huquq, madaniyat, siyosat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о правовой культуре в гражданском обществе и факторах ее развития у граждан.

Ключевые слова: гражданин, гражданское общество, право, культура, политика.

ANNOTATION

This article will talk about the legal culture in civil society and the factors of its development in Citizens.

Keywords: citizen, civil society, law, culture, politics.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, erkin fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida huquqiy madaniyatning o'rni va mavqeい beqiyosdir. Chunki, qonun ustuvor bo'lган demokratiya sharoitida huquqiy madaniyat jamiyatdagi mavjud munosabatlar sifati va mohiyatini belgilovchi asosga aylanadi. Huquq va huquqiy madaniyat bir-biri bilan bog‘liq tushunchalardir. Har bir fuqaro huquqqa, qonunga hurmat bilan munosabatda bo'lsa, huquq va qonunchilik ustuvorligini tan olsa davlatda tartib, jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Mamlakatimizda aholining turli qatlamlari o'rtasida bir so‘z bilan aytganda, har bir fuqaroda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda uni yuksaltirish borasida mustaqillik yillarda yuqorida aytib o'tilgan o'nlab qonun hujjalari, farmoyish va qarorlar bilan birga yuzlab konferentsiya hamda o'quv-seminarlar tashkil qilinmoqda-ki, bularning barchasidagi asosiy maqsad huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan.

Bugungi kunda aholida huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish borasida to‘plangan tajriba asosida oddiy va samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan-ki, bu o‘z

navbatida huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, huquq va huquqiy madaniyatni targ‘ib qilish o‘ziga xos evolyutsion bosqichlarni bosib o‘tganligini kuzatamiz. Shu o‘rinda avvalo, huquqiy madaniyat tushunchasiga ta’rif berib o‘tish o‘rinlidir.

Huquqiy madaniyat bu – har bir fuqaroni avvalo huquqiy ongga, huquqiy bilim va savodxonlikka ega bo‘lgan holda, jamiyatda huquqiy munosabatlarga kirishishidir. Shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaga va turli qonunlarga hurmat bilan birga, xuquq, erkinlik va majburiyatlar orqali yondashishi ham huquqiy madaniyatning ma'lum bir darajasi hisoblanadi. Agar bu tushunchaga ilmiy yondashadigan bo‘lsak, fuqarolarda huquqiy madaniyati shakllantirish uchun avvalo, ularda huquqiy ongni shakllantirish kerakligiga duch kelamiz. Huquqiy ong – insonda huquqiy madaniyat shakllanishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Fuqarolar huquqiy onging shakllanishi va rivojlanishiga, ularda konstitutsiyaviy-huquqiy printsiplar va normalar, huquqiy munosabatlar, shuningdek, konstitutsiyaviy javobgarlik haqida to‘g‘ri tasavvur shakllanishi ga ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy ong – huquqni ro‘yobga chiqarish jarayonida, yuridik munosabatlarni hal etishda tartibga solish vazifasini o‘taydi. Shuningdek, huquqiy ongning tartibga soluvchilik roli huquqiy normalarning ongli ravishda bajarilishida namoyon bo‘ladi. Jamiyat, ijtimoiy guruhlar, shaxs huquqiy madaniyati va huquqiy ongi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot shunchalik mustahkam bo‘ladi.

Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda mamalakatimiz aholisi xususan yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda eng samarali usul bu – uzlusiz huquqiy targ‘ibot olib borish desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ammo ming afsuski sobiq sho‘ro tuzumi va bu tuzum olib borgan siyosat fuqarolarda huquqiy madaniyat u yoqda tursin, huquqiy ongni shakllanishiga ham shu qadar keskin ta’sir o‘tkazganki, uning asoratlari bugungi kunda ham hamon saqlanib qolmoqda. Jumladan, XIX-XX asrlarda mirshab, pristav va boshqa nomlarga ega bo‘lgan huquq-tartibot idoralari xodimlarini ko‘rganda, nafaqat oddiy fuqarolar balki, o‘sha davrlarda ma'lum bir lavozimlarda faoliyat olib borgan mansabdor odamlar ham o‘zlarini olib qochishgan yoki ulardan berkinishgan. Yoshlarning huquqiy madaniyati to‘g‘risida gap borganda, birinchidan, uning o‘z xuquq erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to‘g‘ri anglashi baholashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi haqida so‘z yuritish joizdir.

Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, xuquq tarmoqlari xaqida ma'lumotga ega bo‘lishgina emas, balki turli xil huquqiy ko‘rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to‘g‘risida xabardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo‘lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi va jamiyatda insonlarning xulq-atvoriga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta’kidlab o‘tganidek, faqat

xuquqni bilishgina emas balki, to‘g‘ri tushunish hamdir, qonun amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajarishdir. Bugun yoshlarda qonunlarga bo‘lgan chuqrur hurmatni shakllantirish davr talablaridan biri. Qonunga xurmat bilan yondoshish, bu xurmatni amalda namoyon etishning o‘zi huquqiy madaniyatining oliv darajada namoyon bo‘lishidir. Huquqqa xurmat — shaxs huquqiy madaniyatining muhim xususiyatlaridan biridir. Bu esa xuquqning ijtimoiy qadr-qimmatini, uning ko‘rsatmalarini bajarishning zarur va foydaliligini, xuquq bilan qoniqqanlik tuyg‘usini undagi talablarning adolatlilagini, qonuniy va burchlarni amalga oshirishda faol va ijodiy munosabatni tan olishdan iborat. Ayniqsa, insonning oila oldidagi ijtimoiy — huquqiy javobgarligi va burchi tuyg‘usi bebahodir. Chunki, bu tuyg‘ularni qaror topishi avvalo ular tarbiyalanayotgan oilada shakllanadi va kelajakda jamiyat, davlat oldidagi mas’uliyat, javobgarlik his-tuyg‘ularining poydevoriga aylanadi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimiz ta’lim tizimida ham huquqiy madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarida huquqiy targ‘ibot masalasi ustuvor yo‘nalishlardan sanalmoqda. Aytish mumkinki, so‘nggi yillar ichida ko‘rilgan chora-tadbirlar besamar ketmadi. Katta avlod vakillari, ustozlарimizning e’tirof etishicha, bugungi yurtdoshimizning huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyati darajasi sobiq sho‘ro davridagiga nisbatan sezilarli darajada o‘sgan.

Huquqiy tafakkurning birinchi sharti va zarurati insonning ozodligi va yana bir sharti va zarurati o‘ziga xos demokratik muhitning mavjudligidir. Bugun mamlakatimizda ana shunday muhit shakllanib, insonning barcha huquqlari va erkinligi ta’minlanmoqda, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar qonuniy asosda rivojlanib bormoqda. Zero, Biz buyuk kelajak barpo etish, taraqqiyotga erishish yo‘lida mamlakatning siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, jamiyat ma’naviyatini har tomonlama yuksaltirish, yetuk kadrlar tayyorlash, xalq turmush darajasini izchil va barqaror o‘stirish, iqtisodiyotdagи tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatdagи barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimizning hududiy yaxlitligini ta’minlash kabi masalalarni bosh maqsadimiz qilib belgilaganmiz.

Foydalaniqan adabiyotlar:

- 1.B.Anderson, M. Xrox, O.Bauer, E.Smit. Natsiya i natsionalizm. – M.: Praksis, 2002. – S. 224.
- 2.K.Verderi . Kuda idut «natsiya» i «natsionalizm». – M.: Praksis, 2002. – S 302.
- 3.Madayeva Sh.O Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. Falsafa va huquq instituti nashriyoti T: 2007 12 bet.